



FARG'ONA VODIYSI SUV HAVZALARIDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISH (KARKIDON SUV OMBORI MISOLIDA)

Siddiqov M.N.

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6422512>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022

Ma'qullandi: 20-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Karkidon, rotifera, cladocera, copepoda, zooplankton, gidrobiologik.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Karkidon suv omborining gidrologik va gidrokimyoviy rejimlari baliqchilikni rivojlantirishi uchun qulayligi, suv omborining sath rejimi beqaror va ularning ishlashiga qarab, yil va kun davomida juda katta farq qilishi, suv omborining kislorod rejimi gidrobiontlar hayoti uchun qulayligi, tog' etaklaridan tekislikka o'tishi bilan suv ombori suvining minerallashuvi ortib borishi, Karkidon suv omborining ixtiofaunasi 13 turdagi baliqlardan iboratligi, Bu baliqlardan sazan, kumush sazan, oq amur, Turkiston gurzi, kumush sazan, somon baliqlari asosiy tijorat turlari hisoblanishi haqida hamda zooplankton xilma-xilligi anchagina yuqori ko'rsatgichga egaligi va ushbu suv omborida hammasi bo'lib 13 ta tur zooplankton organizmlari (4 tur Rotifera, 4 tur Cladocera va 5 tur Copepoda lar) aniqlanganligi to'g'rida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek xalqi uchun baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, aholini sifatli baliq va baliq mahsulotlari bilan ta'minlash, baliqchilikda naslchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu etiborning maxsuli o'laroq baliq turlarini iqlimlashtirish yo'llari ishlab chiqildi, mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda baliq turlarini ko'paytirish va ularni qayta ishlash hajmlari oshirildi hamda baliq yetishtirishning intensiv usullari amaliyotga joriy etildi. Baliqchilikni rivojlantirishga oid vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlarida jumladan, PQ – 2939 qarorda «sun'iy va tabiiy suv havzalar zahiralardan samarali

foydalanish», PQ – 4005 qarorda «Akvakulturaning intensiv usullarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish» vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan xolda, baliq yetishtirishning turli tizimlarini qo'llash imkoni mavjud suv havzalarining hozirgi holatini baholash, turli tipdagi suv havzalari uchun istiqbolli bo'lgan zamonaviy akvakultura tizimini tanlash, baliqchilik suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirish uchun respublikadagi mavjud suv havzalaridan kompleks foydalanish asosidagi zamonaviy yondoshuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947 – son «O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 1 maydagi PQ-2939 son «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori va 2022 yil 13 yanvardagi «Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 719 – son «Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 18 oktyabrdagi 845-son «Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarida to'g'risida» gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. [1,2]

Tadqiqot materiallari va uslublari. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlari Farg'ona viloyati Karkidon suv omborida olib borildi.

Karkidon suv omboridan materiallarni 2020 yil mart oyidan yig'ila boshlandi. Materiallarni yig'ish suv omborining barcha qismidan, 3 ta stansiyaga bo'lingan holda olib borildi. Tadqiqot davomida materiallarni yig'ish maydoni, yig'ish sharoiti (chuqurlik, suv tubining ko'rinishi, o't bilan qoplanganlik darajasi va boshqalar), havoning va suvni harorati, yig'ish vaqti va shamolning yo'nalishi kabi barcha tashqi muhit omillari o'lchab borildi.

O'rganilayotgan suv havzasida zooplankton yig'ilib, ularning oziqa bazasi o'rganildi. Yig'ilgan plankton va bentos materiallarini laboratoriyada taxlil qilish gidrobiologiyaning umumiy qoidalariga asoslangan holda olib borildi. Gidrobiologik materiallarning turlari, soni va biomassasi aniqlangandan keyin ularning real maxsuldorligi aniqlandi. Chunki gidrobiontlar baliq oziqa bazasini tashkil qiladi.

Zooplankton namunalarini Jedi № 68 plankton sitasi yordamida suzib olindi. Bu namunalar 4% li formalin eritmasida fiksatsiya qilindi.

Gidrobiologik tadqiqotlarni boshlash uchun avvalo suv havzasining joylashgan xududi va uning xaritasi yaxshilab o'zlashtiriladi. So'ngra suv havzasining qaysi nuqtasidan gidrobiologik va gidroximik namunalar olish kerakligi belgilab olinadi (asosan organizmlar ko'p uchraydigan nuqtalarni topish kerak). Undan keyin, suv havzasiga suv kirish va chiqish joylari belgilanib, kuzatish nuqtalari aniqlab olinadi. Tadqiqotlarda avvalo suvning temperaturasi, tiniqligi, pH va kislorod miqdorini aniqlab olish zarur. Materiallar asosan 2020-2022 yillar bahor va yoz oylarida yig'ildi [3, 4,5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Karkidon suv ombori 1967 yilda Isfayram daryosi oqimida qurilgan. Karkidon suv omborining suv sig'imi 214,0 mln. m³, suv yuzasi maydoni 953 km², chuqurligi 36 metr. Lekin xozirgi kunda suv satxi ancha pasaygan bo'lib Farg'ona tumani qishloq ho'jaligini suv bilan ta'minlashga sarflanadi. Karkidon suv omboridan yil davomida namunalar olindi. U tog' oldi suv ombori bo'lishiga



qaramasdan issiq suvli suv ombori hisoblanadi. Shuning uchun undagi zooplankton xilma-xilligi kam anchagina yuqori ko'rsatgichga ega. Ushbu suv

omborida hammasi bo'lib 13 ta tur zooplankton organizmlari (4 tur Rotifera, 4 tur Cladocera va 5 tur Copepoda lar) aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Karkidon suv ombori zooplanktonlarining miqdoriy tarkibi va sifat jihatidan rivojlanishi

№	Turlar	Oylar							
		III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
1.	<i>Asplanchna priodonta</i>	+	+	+	+	+	+	+	+
2.	<i>Keratella cochlearis</i>	-	-	-	+	+	+	-	-
3.	<i>Polyarthra longiremis</i>	+	+	-	-	-	-	+	+
4.	<i>Synchaeta pectinata</i>	+	+	-	-	-	-	+	+
5.	<i>Bosmina longirostris</i>	+	+	+	+	+	+	+	-
6.	<i>Daphnia galeata</i>	+	+	+	+	+	+	+	+
7.	<i>Moina micrura</i>	-	-	+	+	+	+	-	-
8.	<i>Macrothrix odiosa</i>	-	-	-	-	-	-	-	+
9.	<i>Eucyclops serrulatus</i>	-	-	-	-	-	+	+	+
10.	<i>Paracyclops fimbriatus</i>	-	+	-	-	-	-	-	-
11.	<i>Diacyclops bisetosus</i>	+	-	-	-	-	-	-	-
12.	<i>Cyclops vicinus</i>	+	+	+	+	+	+	+	+
13.	<i>Thermocyclops vermifer</i>	-	-	+	+	+	+	+	+
Jami turlar		7	7	6	7	7	8	8	8
Jami miqdori, ming dona/m ³		23	88	158	290	210	110	44	31
Jami biomassasi, g/m ³		0,031	0,131	0,145	0,259	0,288	0,311	0,212	0,095



Deyarli barcha namunalarda *Asplanchna priodonta*, *Daphnia galeata*, *Cyclops vicinus* turlari uchradi. Bahor oylari davomida *Keratella cochlearis*, *Moina micrura* uchrab turgan bo'lsa, bahor va kuz oylarida ko'proq *Polyarthra longiremis* va *Synchaeta pectinata* kuzda esa faqat *Macrothrix odiosa* va *Eucyclops serrulatus* turlaridan iborat bo'ldi (1-jadval). *Bosmina longirostris* va *Thermocyclops vermifer* turlari deyarli barcha tadqiqotlar davomida uchrashi kuzatildi.

Zooplanktonning miqdori va biomassasi uzluksiz mart oyidan boshlab yozgacha oshib bordi, keyin esa oktyabr oyiga qarab bir tekis kamayib bordi. Lekin miqdor ko'rsatgichining maksimumi iyun oyiga to'qri kelgan bo'lsa, biomassaning maksimumi iyul va avgust oylariga to'qri keladi

Buning sababi *Daphnia galeata*, *Cyclops vicinus*, *Thermocyclops vermifer* kabi turlarni miqdoriy ko'satgich, kam biomassa miqdori Varzik suv omborinikiga nisbatan ancha baland ekanligi aniqlandi.

Bu suv ombor iqtisodiy jixatdan katta ahamiyatga ega bu erda zag'ora baliq, oq amur, oq va chipor do'ngpeshona baliqlarini etishtirish mumkin.

Xulosa: Karkidon suv omborining gidrologik va gidrokimyoviy rejimlari baliqchilikni rivojlantirish uchun qulaydir. Suv omborlarining sath rejimi beqaror va ularning ishlashiga qarab, yil va kun davomida juda katta farq qiladi. Suv omborining kislorod rejimi gidrobiontlar hayoti uchun qulaydir. Tog' etaklaridan tekislikka o'tishi bilan suv ombori suvining minerallashuvi ortib boradi.

Karkidon suv omborining ixtiofaunasi 13 turdagi baliqlardan iborat. Bu baliqlardan sazan, kumush sazan, oq amur, Turkiston gurzi, kumush sazan, somon baliqlari asosiy tijorat turlari hisoblanadi.

Zooplankton xilma-xilligi kam anchagina yuqori ko'rsatgichga ega. Ushbu suv omborida hammasi bo'lib 13 ta tur zooplankton organizmlari (4 tur Rotifera, 4 tur Cladocera va 5 tur Copepoda lar) aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov B.G., Qurbonov R.B. "Baliqchilik (O'zbekiston karp baliqlarini ko'paytirish)". Toshkent, 2009 y. 86 bet
2. Nazarov. M.Sh. Umumiy Gidrobiologiya "Poligraf-Press" M.Ch.J. –Farg'ona 2015y
3. Xolmirzayev D va boshq. "Baliqchilik asoslari". o'quv qo'llanma. — T.: «ILM ZIYO», 2016. 248 b.
4. Abdinazarov X.X. Farg'ona vodiysi suv havzalari zooplanktoni: Avtoreferat diss... biologiya bo'yicha falsafa doktori(PhD). – Toshkent, 2018. – B.18.
5. Abdinazarov X.X. Madumarov J.M va boshqalar. Baliqchilik xo'jaliklarida tabiiy oziqa – dafniya yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar // Tavsiyanoma. – Qo'qon, 2020 – B.30.